

KIYINISH MADANIYATIDA MILLIY VA DINIY AN'ANALAR IN'IKOSI

Aqchaev Farrux Shavkatovich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti birinchi prorektori,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent**e-mail: akchayevfarrux84@gmail.com**<https://orcid.org/0009-0005-2368-7900>**UDK: 94(575.1)*

Annotatsiya. Maqolada globallashuv sharoitida kiyinish madaniyatida milliy va diniy an'analarning saqlanishi hamda transformatsiyasi masalalari ilmiy-etnologik jihatdan tahlilga tortilgan bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot makonining ta'siri ostida etnik liboslar, ayniqsa, milliy va diniy qadriyatlar bilan bog'liq kiyinish me'yorlarida kuzatilayotgan o'zgarishlar ochib berilgan. Shuningdek, milliy liboslarning tarixiy shakllanishi, ularning ijtimoiy, marosimiy, gender va yoshga doir funksiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kiyinish madaniyati, milliy liboslar, diniy an'analar, etnik o'ziga xoslik, globallashuv, ommaviy madaniyat, gender, marosimiy kiyinish, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy meros.

Аннотация. В статье с научно-этнологической точки зрения анализируются вопросы сохранения и трансформации национальных и религиозных традиций в культуре одежды в условиях глобализации. Под воздействием социальных сетей, массовой культуры и современного информационного пространства раскрываются изменения, наблюдаемые в этнической одежде, в частности в нормах одежды, связанных с национальными и религиозными ценностями. Также освещаются историческое формирование национальной одежды, а также ее социальные, обрядовые, гендерные и возрастные функции.

Ключевые слова: Культура одежды, национальная одежда, религиозные традиции, этническая идентичность, глобализация, массовая культура, гендер, обрядовая одежда, социальные сети, культурное наследие.

Abstract. The article provides a scientific

and ethnological analysis of the issues related to the preservation and transformation of national and religious traditions in clothing culture under the conditions of globalization. Under the influence of social networks, mass culture, and the modern information environment, the study reveals changes observed in ethnic clothing, particularly in dress norms associated with national and religious values. The historical formation of national costumes, as well as their social, ritual, gender, and age-related functions, are also examined.

Keywords: Clothing culture, national costumes, religious traditions, ethnic identity, globalization, mass culture, gender, ritual clothing, social networks, cultural heritage.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jahondagi globallashuv jarayonlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali madaniy mahsulotlar targ'ibotining ommaviylashuvi turli geosiyosiy va mafkuraviy tahdidlarni keltirib chiqarib, etnoslarning madaniy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar, ayniqsa, asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar tizimida muhim ahamiyatga ega etnik o'ziga xosliklarning rivojiga ham to'siq bo'lmoqda. Xususan, insoniyat tarixi davomida shakllangan va millat boyligi sifatida qaraladigan etnik liboslarni saqlash, ularni tiklash va milliy madaniyatning bir qismi sifatida rivojlantirish, liboslarning tarixi, vorisiylik an'analarni yo'qotishga qaratilgan g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlar paydo bo'lib, ular milliy mentalitetga mos kelmaydigan kiyinish madaniyati o'zgarishi bilan bog'liq muammolarini yuzaga keltirmoqda. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda yuzaga kelayotgan har qanday ma'naviy va tarbiyaviy

xavflarni bartaraf etish usullari, tamoyillari hamda mezonlarini ilmiy asosda tadqiq etish zamon talabiga aylanmoqda.

Yangi O'zbekistonda madaniy sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida milliy merosni an'anaviylik va zamonaviylik ko'rinishlarini o'zida aks ettirgan komponentlar orqali takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Ommaviy madaniyat"ning turli yangicha ko'rinishlari paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida inson ma'naviy olamini, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhim"[1:29]. Shuning uchun ham xalqlar madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan milliy liboslar, kiyinish madaniyatidagi odob normalari va ularning jamiyat hayotida muhim o'rin tutishini, har bir libos va ularning atributlarida milliy va diniy qadriyatlar aks etishini inobatga olgan holda bu hodisalarni etnomadaniy taraqqiyotning muhim fenomeni sifatida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Kiyim insonning ichki dunyosi hamda psixologik jihatdan o'ziga bo'lgan ishonchini ko'rsatib beradigan elementdir. Kiyimlar va kiyinish madaniyatining shakllanish bosqichlariga nazar tashlasak unga insonlarning mashg'ulot turi, hududning iqlimi hamda mato uchun xom-ashyo shakllari bevosita ta'sir qilganligini ko'rish mumkin. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga qaraganda, dastlabki kiyimlar insondagi uyalish hissiyoti sabab paydo bo'lgan deb qaralsa, boshqa tomondan esa inson tanasini bezash niyatini, tashqi omillardan himoyalanih ehtiyojlarini sabab qilib keltiradi[2:178]. Arxeologik qazilmalar guvohlik berishicha kiyim insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi davrlarida, bundan 40-25 ming yil ilgari paydo bo'lganini ko'rsatadi. Dastlabki davrlarda odamlar tabiatning turli ta'sirlari, xususan, hayvon va hashoratlarning chaqishidan o'zini himoyalash maqsadida tanasiga tuproq, loy, moy surtib yurgan. Keyinchalik bu surtmalarga o'simlik bo'yoqlari qo'shib, inson tanasini turli shakl va ranglar bilan bezash odat bo'lgan. Aynan

mana shu hozir biz tilga olgan tanani bo'yash, tatuirovkalar kiyimning dastlabki shakllari bo'lib, matodan qilingan kiyimlar paydo bo'lgach ham, ular insonlarning e'tiboridan chetda qolmagan. Endi ular kiyimning ma'lum bir elementi sifatida shakllanib, unga ko'rk berish vazifasini bajarmoqda. Bundan tashqari o'sha davrda har xil qushlar patlari, o'ldirilgan hayvonlar tishlari, suyaklar, sochlar turli ramziy vazifalarni bajarish bilan birga tanani himoyalab ham turgan[13:5]. O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning kiyimlari ham dunyoning boshqa mintaqalaridagi kishilar kiyimlari kabi tabiiy iqlim, turmush sharoitlari va urug'-qabila an'analari asosida shakllangan.

Kiyinish xar bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlar, tabiati bilan xam chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, serquyosh o'lkalarda yashovchi xalqlarda kadim zamonlardan beri oq matodan kiyim kiyinishni odat qilingan. Chunki oq mato quyosh nurlarini bir kadar qaytarib, kishilarni issiq ta'siridan saqlagan. Aksincha, tabiati sovuq o'lka va yurtlar xalqlari esa odatda qora matodan kiyim kiyishga odatlanishgan. Chunki bu kiyim sal bo'lsa-da havoni ilitib turgan quyosh nurlarini o'ziga singdirib, kiyim egasining tanini isitgan[11:87].

Xalqlarning kiyinish madaniyati o'sha kiyimdagi bezaklar hamda uning ramziy ma'nolari muhim o'rin tutsa-da aslida kishilarning kiyimiga bo'lgan munosabati hamda kiyimning jinsga bo'linishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning kiyinish madaniyatidagi tartib hamda qoidalar milliy qadriyatlar va diniy qarashlar bilan qorishgan holda shakllanadi. Milliy kiyimlar elat (etnos) shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi jarayonida u bilan uyg'un holda rivojlanib boradi. Qadimdan etnoslarning yashash joylari, tabiiy va iqlim sharoiti, hayot kechirishi, mehnatning turi va ko'rsatadigan faoliyatlariga qarab kiyimlarning shakllari ham yuzaga kelgan. Shu ma'noda ham kiyimlar har bir xalqning tarixi, madaniyati va ma'naviyatining ajralmas qismiga aylanib borgan[3:54, 4:382].

Etnologiyada kiyimlarni tasnifini keltirar ekanmiz, uning vazifasiga, kiyish maqsadiga

ko'ra bir necha turlarga bo'lib chiqishimiz mumkin. Xususan, kishining yoshiga qarab: bolalar, kattalar, keksalar libosi; insonning jinsiga mos holatda: erkaklar va ayollar kiyimi; kiyinish maqsadiga qarab: bayram, marosim, kundalik va ish kiyimlari; ijtimoiy holatiga muvofiq: boy, kambag'al; hududiy va tabiiy-iqlim sharoitiga qarab: tog'liklar, dasht hududida yashovchilar, shaharliklar va qishloqliklar liboslari; mavsumga mos tarzda: bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki kiyimlar[9:5], inson tanasining u yoki bu qismiga kiyilishiga qarab kiyimlarni bosh kiyim, ustki kiyim, ichki kiyim va oyoq kiyimlarga ham ajratishimiz mumkin.

Milliy kiyimlarda, biron-bir el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Unda xalqlarning didi, go'zallik to'g'risidagi qarashlari, xo'jalik yuritishning o'ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Liboslarda urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotidagi quvonchli yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi[3:54]. Xalq turmushiga mos, ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo'lgan kiyimlar asrlar mobaynida shakllanib borishi natijasida xalqning an'anaviy milliy kiyimlari vujudga kelgan[10:3].

O'zbek xalqining kiyimlari va kiyinish madaniyatida milliy an'analar sifatida kiyimdagi bezaklarni, erkaklarni kiyimiga nisbatan ayollarni kiyimi rangli, turfa xil hamda naqsh bezaklari ohangjamoli hamda yaltiroqlikligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, o'zbeklarda kiyinish madaniyatini o'ziga xos jihati uy, yumushlar uchun alohida, bayram va boshqa bazmlar uchun alohida kiyimlar to'plamining mavjudligi hamda erkakka xos kiyimlarni ayollar kiyishi joiz emasligi yoki ayollarga xos va ulargagina tegishli kiyim-kechaklarni erkaklar kiyishi ta'qiqlanishi yoki odobsizlik sanalishi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. O'zbek an'anaviy libos madaniyatini tizimli ravishda tasniflash

natijasida uni rang-barang yo'nalishlarga ajratish mumkinligi aniqlandi. Jumladan, milliy liboslar tarixiy, etnik, hududiy, madaniy, gender (jins), yosh, mashg'ulot turi, bayram va marosimlar, kasbiy faoliyat hamda mavsumiy xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Bu tasnif milliy kiyimlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni va vazifasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Sharq xalqlari madaniyatida, xususan o'zbek an'anaviy libos tizimida gender masalasi muhim o'rin egallaydi. Yevropa kiyinish madaniyatidan farqli ravishda, o'zbek jamiyatida erkaklar va ayollar liboslari qadim zamonlardan o'zaro keskin farqlangan. Ular shakli, mazmuniy yuklamasi, ranglar uyg'unligi, bezakdorligi va estetik jozibasi bilan bir-biridan ajralib turgan.

Kiyinish madaniyatida diniy an'analar in'ikosi esa xalq e'tiqod qiladigan dinda buyurilgan va ta'qiqlanmagan matolardan kiyinish hamda kiyimlarni tanani yopib turishi kabi jihatlarni keltirish mumkin. Jumladan, o'zbeklarda ham diniy jihatdan erkaklarga shoyi va ipak matolardan kiyim kiyishni ta'qiqlangani, zeb-ziynat buyumlarida ham oltindan qilingan ziynat buyumlaridan foydalanmaslik kabi jihatlar mavjud. Kiyimni tuzilishi bo'yicha esa, ayollarda avratni yopiq bo'lishi hamda erkaklarda ham tor va qisqa kiyimlarni kiyish ta'qiqlanishi kabi jihatlarni qayd etish joiz. O'zbeklarning kiyinish madaniyatida milliy va diniy an'analar va qoidalar ko'proq ayollarda aks etadi. Chunki kiyimga qo'yilgan talablar orasida ayollarniki qat'iy qoidalar va ko'proq diniy mazmunda aks etadi. Kiyimni bezash va qo'shimcha atributlar ham ko'proq ayollarga xos.

Bugungi kunda ham milliy an'analar kiyinish madaniyatidagi moda shaklida hamda diniy talablar esa jamoat nazorati ostida jamiyatda saqlanib qolayotganini ko'rishimiz mumkin. Qat'iy qoidalar kuchaygani sari uni buzish ham oshib boradi deganidek, ayollarni kiyimlarida milliy va diniy an'analarning buzilishi hamda o'zgarib borishi ko'proq ko'zga tashlanadi. Ya'ni, bugungi kunda bu borada bir jihat borki, kiyimni bezagi yoki shaklini o'zgartirgan holda erkaklarga xos kiyim elementlaridan ayollarni kiyimini

tayyorlashda hamda ayrim ayollarga xos yorqin rangdagi matolardan erkaklarga oid kiyimlarni tikishda foydalanish holatlari ko'payib bormoqda. Sir emasi, bu diniy jihatdan man qilingan holatdir. Zero, Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam shunday deganlar: **"Albatta, Alloh erkaklarga ayollarga o'xshashni, ayollarga esa erkaklarga o'xshashni man qildi"**[5]. Shu ma'noda, mazkur hadis islom ta'limotida erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy farqlarni saqlash, jamiyatda ma'naviy tartib va axloqiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan muhim qoida sifatida talqin etiladi. U nafaqat tashqi ko'rinish yoki kiyinish uslubiga, balki jinsga xos xulq-atvor, ijtimoiy vazifa va ma'naviy mas'uliyatlarga ham daxl qiladi. Demak, genderga xos chegaralarni buzish diniy nuqtai nazardan ma'qullanmas ekan, milliy va madaniy an'analarda ham erkak va ayol obrazlarining alohida saqlanishi tabiiy hol sifatida shakllangan. Bu esa diniy me'yorlar bilan milliy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, kiyinish madaniyatiga tartibni quyidagi shakllarga ajratish mumkin: marosimiy kiyinish madaniyati, jins bilan bog'liq madaniyat, yosh bilan bog'liq va kasb bilan bog'liq kiyinish madaniyati.

- *marosimiy kiyinish madaniyati.* Marosimlar o'zbeklar dunyoqarashida yirik ikki guruhga ajralar ekan. Birinchisi to'y marosimlari bo'lib, unda ayollarni yorqin, milliy va zamonaviy uyg'unlikdagi kiyinishi ko'zga tashlanadi. Bunday liboslar, odatda, qimmatli matolardan maxsus buyurtma asosida, yuqori mahoratga ega chevarlar tomonidan oldindan tayyorlanib, ular ko'proq oq hamda turli yorqin ranglarda ishlangan bo'lib, bu ranglar muayyan ramziy ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Xususan, oq rang tozalik va poklikni ifoda etib, baxt va farovonlikning timsoli sifatida qabul qilingan. Shuni ham qayd etish joizki, bugungi zamonaviy jamiyatda milliy va diniy an'analarga zid bo'lgan kiyim yoki kiyinish odobi asosan to'y marosimida ko'zga tashlanadi[8]. Boshqacha aytganda to'y va uning ramzi – bugungi kunda kelin va uning atrofidagi ayollar bo'lib qolgan ekan,

to'ylardagi kiyinish madaniyati ham ularga bog'liq holda shakllanmoqda.

Motam marosimlarida esa nisbatan yopiq va bir xil (rang barang yoki yorqin bo'lmagan rang-qora, kul rang, ko'k va x.k.) rangdan iborat kiyimlarni kiyish saqlanib qolgan. Motam marosimlarida to'y marosimlariga qaraganda milliy kiyimlardan foydalanish va kiyinish odobiga rioya qilish kuchliroq sanaladi. Aza munosabati bilan kiyiladigan liboslar asosan qayg'u-alam holatini ifodalashga xizmat qilib, erkaklar asosan chopon ustiga belbog' bog'lab, bosh kiyim sifatida do'ppi kiyishgan. Ushbu kiyinish tartibi jamiyatda motam holatining tashqi belgisi sifatida qabul qilingan.

Erkaklar va ayollar ham birdek yopiq va talab darajasida kiyinishing sababi, balki to'y milliy marosim sirasiga kirgani bo'lsa, motam marosimi diniy xarakterdagi marosimlardan iborat ekanligi muhim ahamiyat kasb etsa kerak. Ikkinchisi to'y xursandchilik va ko'ngilxushlik bo'lib, u erda barcha holat pozitiv kayfiyatdan iborat va asosan bu dunyoning ko'ngilxushliklari ustiga qurilganligi sababli, kiyinishda insonlar o'zlarining shaxsiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqara oladilar. Motam marosimi esa insonlarni ko'proq "u dunyo"ni borligi va o'lim haq ekanligini ko'rsatuvchi jarayon ekanligi va eng muhimi barcha rasm-rusumlar diniy mazmunda bo'lganligi sababli kiyinish madaniyatida ham bunga qat'iy rioya qilinadi[7].

- *erkak va ayollarning kiyinishi.* Kiyinish madaniyatining ikkinchi shakli jins bilan bog'liq bo'lib, qadimdan erkaklarning milliy liboslari asosan bosh kiyimlar (do'ppi, qalpoq, salla), ust kiyimlar (ko'ylak, ishton, chopon, belbog') hamda poyabzal turlari (mahsi, kalish, etik)dan tashkil topgan. Ushbu libos elementlarida qo'llangan ranglar, shakllar va naqshlar muayyan ramziy ma'nolarni ifoda etgan. Do'ppi engil va qulay bosh kiyim sifatida kundalik hayotda doimiy ravishda kiyilgan. Salla esa erkaklar uchun muhim marosimiy libos bo'lib, o'g'il bolalarga sunnat to'yida, keyinchalik nikoh marosimida tantanali ravishda kiydirilgan. Shuningdek, salla janglarda halok bo'lgan musulmonning oxirat

kiyimi — kafan vazifasini ham bajargan. Yaktak ko‘ylak erkakning qudrati, shon-shuhrati va jasoratini anglatuvchi belgi hisoblangan, uning ustiga bog‘langan belbog‘ esa mardlik va vafodorlik ramzi sifatida talqin etilgan. Shuni ham qayd etish joizki, bugungi zamonaviy o‘zbek jamiyatida milliy va diniy an‘analar asosida kiyinish va unga amal qilish erkaklarning turmush tarzida ko‘proq saqlanib qolmoqda.

Ayollarning an‘anaviy milliy liboslari ham bir nechta asosiy qismlardan iborat bo‘lib, ularga bosh kiyimlar (ro‘mol, yopinchiq, peshonabog‘, do‘ppi), ust kiyimlar (ko‘ylak, mursak, kaltacha, kamzul, chopon, lozim) va poyabzal turlari (mahsi, kavush, etik) kiradi. Ayollar liboslari rang jihatidan yorqin, bezaklarining nozikligi va shakllarining nafosati bilan erkaklar kiyimlariga nisbatan yanada ko‘rkam bo‘lgan. Yopinchiq (paranji, sarandoz, jelak) asosan to‘y marosimlarida va jamoat joylariga chiqishda kiyilgan bo‘lib, nikoh libosining muhim tarkibiy qismi sanalgan. Ayollar poyabzallari esa teridan turli uslublarda tikilib, bezakdor shaklda ishlangan bo‘lib, mahsi, kavush va etiklar ularning kiyinish madaniyatida alohida ahamiyat kasb etgan. O‘zbek ayollarning an‘anaviy kiyinish madaniyati ko‘proq milliylikdan ko‘ra diniy xarakter kasb etganligi sababli, XXI asrda qorishiq madaniyatning ta‘siri ularda kuzatilmoqda. Aytish joizki o‘zbeklarda ayollarning kiyinish madaniyatining o‘zgarishi oiladagi tarbiya va erkakning roli bilan ham o‘lchanadi. Zero, Qur‘oni Karimda ham “Mo‘mina ayollarga ayting: ular ko‘zlarini nomahramlarga qarashdan, zinodan o‘zlarini tiysin. Ziynatlarini (ko‘rinib turadiganlaridan tashqari) namoyon qilmasinlar. Ro‘mollarini ko‘ksilariga tushirib yursinlar...”[12] deyilgan.

- *yosh doirasiga ko‘ra kiyinish madaniyati.* Kiyimning inson hayotidagi vazifasi faqat tanani himoya qilish yoki estetik ko‘rinish bilan cheklanmaydi, balki u shaxsning ijtimoiy maqomi va hayot bosqichlarini belgilab beruvchi muhim madaniy belgi hisoblanadi. An‘anaviy jamiyatlarda muayyan libos turlari bolalikdan o‘smirlikka, yoshlikdan kattalar safiga o‘tish kabi ijtimoiy o‘zgarishlarni ramziy tarzda ifoda etadi. Darhaqiqat, kiyimni

an‘anaviy vazifasidan tashqari, u insonni bir yosh bosqichidan ikkinchi bosqichga o‘tishini ham anglatgan[2:181]. Bu holat kiyimning marosimiy va belgilash (identifikatsiya) funksiyasi mavjudligini ko‘rsatib, uni etnomadaniyat tizimida muhim axborot tashuvchi vosita sifatida namoyon etadi.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, o‘zbeklarning yosh toifasi bo‘yicha kiyinish jarayonlari tadqiq etilganda, erkaklarda yosh tartibi bo‘yicha kiyinish asosan bir maromda ketayotganini ko‘rish mumkin. Faqat o‘rta yosh, o‘spirin-o‘smir yoshda milliy madaniyatga to‘g‘ri kelmaydigan urfdagi g‘arb kiyimlari hamda kiyimlarni bezashda ishlatiladigan rasmlarning mavjudligini qayd etish joiz. Yosh toifasi bo‘yicha ayollarning kiyinish madaniyatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, bugungi zamonaviy o‘zbek jamiyatida 30-yoshgacha bo‘lgan qismda milliy va diniy an‘analar asosida kiyinish madaniyati qolipdan chiqib ketgan deyish mumkin. Yoshga doir kiyinish madaniyatida masalani uch jihatini qayd etish joiz. Birinchidan, ayollarning kiyimi va kiyinish madaniyatida milliy bezaklar, ranglar. Matolar hamda boshqa atributlar eng ko‘p saqlanib qolayotgan bo‘lsa, diniy an‘analar eng ko‘p o‘zgarishga uchragan. Ikkinchi tomoni, yoshi katta ayollarda (40-yoshdan oshgandan so‘ng) diniy tartibda kiyinish (yopiq, uzun kiyimlar, aksar hollarda boshiga ro‘mol o‘rash va x.k.) foizi oshib boraveradi.

Axborotchilarning ta‘kidlashlaricha, buning sababi yosh o‘tgan sari ayollardagi jismoniy o‘zgarishlar-tanani qarishi, ajin tushishi va x.k. jihatlar ularni endi yopiqroq va uzun kiyimlarni kiyishni talab qiladi[6].

- *kasbga ko‘ra, kundalik kiyinish madaniyati.* Kiyinish madaniyatining navbatdagi turi kasb bilan bog‘liq jihatlar bo‘lib, kasbiy kiyimlarda diniy an‘analar jiddiy “zararlanmagan”. Kasbning holati va ishning xarakteridan kelib chiqqan holda milliy liboslar va atributlardan foydalanish imkoniyati ham saqlanib qoladi. Ammo bu jihatda ayollarni masalasi ham dolzarbligicha qoladi. O‘qituvchilik, shifokorlik, murabbiylik, bank xodimi kabi kasblarda va boshqa davlat ishxonalariida idoraviy kiyimlar (dress code) qo‘yilgani

sababli, o'sha talabga amal qilinsa-da, lekin kalta, torroq kiyinish holati saqlanib qolgan. Kundalik (uy ichiga) kiyinish ham milliy va diniy an'analar asosida bo'lishi ko'zga tashlanadi.

Kuzatishlarimiz jarayonida kiyinish madaniyatida milliylik va diniylik omili ko'proq to'y marosimlarida kam e'tibor qaratiladigan jihatga aylanib qolganligi hamda

yosh toifasiga doir jihatlarida ham asosan ayollarni orasida bu talablarga mos bo'lmagan g'arbcha madaniyat elementlari kuzatilishi ko'zga tashlanadi. O'z-o'zidan savol tug'iladiki, aslan milliy va diniy qoidalarga yo'g'rilgan kiyinish madaniyati qaysi asoslarga ko'ra o'zgardi yoki unga nimalar ta'sir qilmoqda. O'tkazilgan so'rovnoma quyidagicha natija berdi.



4.2-rasm. Kiyinish madaniyatiga ta'sir qiluvchi omillar.

Ushbu so'rovnoma asosida aytish mumkinki, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy munosabatlarning ko'lami, jamiyatda hukmron bo'lib borayotgan g'oyalarning aksini o'zida ko'rsatuvchi jihatlardan biri xalqning kiyinish madaniyatidir. To'g'ri, bu omil to'liq millatning dunyoqarashini ifodalab berolmasada, o'zini jamiyatning, hech bo'lmaganda yoshlarning qarashlarini ko'rsatib bera oladi. Demak, yuqoridagi natijadan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoqlardan (Instagram, tik-tok, telegram) foydalanuvchilarning qariyb 70% yoshlar tashkil qilar ekan, ularning kiyim madaniyati ham shu tarmoq orqali shakllanishi tabiiy. Ikkinchi tomondan bugungi kundan pandemiya tufayli O'zbekistonda ham aksariyat savdo munosabatlari onlayn shaklga o'tib, ijtimoiy tarmoqlar orqali qayerda qanday urfdagi kiyim borligi, narxi va hatto etkazib berish xizmati mavjudligigacha ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Shu tufayli bu tarmoq boshqa masalalarda bo'lgani kabi kiyinish madaniyatini ham shakllanishiga o'z ta'sirini

o'tkazmoqda.

Ikkinchi omil televideniye bo'lib, so'ngi yillarda uni ta'siri internet bilan bahslasholmay borayotgan bo'lsada, lekin bugungi kunda ko'plab xususiy kanallar va ular efirga berayotgan "milliy serial"dagi g'oyalarni iste'molchisi ayollar bo'lib qolmoqda. Poytaxt va shahar markazlarini hisobga olmaganda hali hanuz o'zbek jamiyati, o'zbek ayollarining asosiy ermagi teleloyihalar ekanligi sir emas. Shu sababli u erdagi reklamalar hamda targ'ib qilinayotgan madaniyat bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Taniqli shaxslar (asosan estrada yulduzlari)ning kiyinish madaniyati va targ'iboti esa ikki tomonlama ham TV orqali ham ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritilishi ularning ta'sir chegarasini oshirib bormoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, kiyim har bir millatning moddiy turmush tarzini ifoda etuvchi muhim omil bo'lib, u jamiyatning ma'naviy qiyofasi, diniy tasavvurlari va iqtisodiy imkoniyatlarini ham

o'zida aks ettiradi. Kiyinish madaniyati insoniyat tarixida qadim davrlardan shakllanib kelgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar tizimi sifatida namoyon bo'lib, uning rivojlanishi inson ma'naviy olamining yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbeklarning kiyinish madaniyati ham dastlab dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan hayot tarzi hamda hududiy-iqlimiy sharoitlar ta'sirida shakllangan. Keyinchalik ilk diniy qarashlarning vujudga kelishi, ayniqsa islom dinining kirib kelishi natijasida kiyinish madaniyatida milliy va diniy mazmundagi tushunchalar, qoidalar va me'yorlar qaror topgan. Bu jarayon o'zbek milliy kiyinish an'analarning mazmunan boyishiga va tizimli tus olishiga xizmat qilgan.

O'zbeklarda kiyinish madaniyati jins, yosh hamda kundalik yoki marosimiy hayot kabi turkumlarga ajralib, ular orasida jinsga xos kiyinish madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihat milliy o'zlikni anglash,

ajdodlar merosiga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda diniy qoidalarni idrok etish va unga amal qilish kabi omillarni ochib beradi. Shu bilan birga, o'zbek kiyinish madaniyatida milliy va diniy an'analarning in'ikosi asosan moddiy ko'rinishda — milliy matolar, bezak ramzlari va kiyim bilan bog'liq tabular orqali saqlanib qolgan.

Biroq kiyinish odobi bilan bog'liq ayrim jihatlarida, xususan to'y marosimlari, o'smirlik davri, shuningdek, ayrim kasbiy va kundalik holatlarda milliy va diniy an'analarning in'ikosi doim ham yaqqol ko'zga tashlanmasligini qayd etish lozim. Jamiyatda bunday holatlarning paydo bo'lishi, avvalo, global madaniyatga xos kiyinish uslublarining kirib kelishi hamda ijtimoiy tarmoqlarning faol ta'siri bilan izohlanadi. Bu esa milliy kiyinish madaniyatining zamonaviy sharoitlarda transformatsiya jarayonini boshidan kechirayotganini ko'rsatadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Mirziyoyev Sh.M. Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. — T.: O'zbekiston, 2018.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimgi e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.
3. Асқарова М. Ўзбек миллий либосларининг этнопедагогик хусусиятлари // Ученый XXI века. 2022. № 6.
4. Atamuradova F. Milliy kiyimlar – millat ko'rki va g'ururi // Central Asian academic journal of scientific research. 2022. № 6.
5. Buxoriy, Muxammad ibn Ismoil. *Ṣaḥīḥ al-Bukhārī. Kitāb al-Libās (Book of Dress)*, Hadith 5885 (Volume 7, Book 77, Hadith 102/773).
6. Dala tadqiqotlari. Jizzax viloyati Jizzax shahri, Sh.Rashidov, Zomin va G'allaorol tumanlari. 2024 y.
7. Dala tadqiqotlari. Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari. 2021-2025 yillar.
8. Dala tadqiqotlari. Toshkent, Jizzax va Samarqand shaharlari. 2024-2025-yillar.
9. Ibragimova M.Yu. Surxondaryo vohasi aholisining an'anaviy kiyimlari va taqinchoqlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): t.f.n. uchun yozilgan diss... – Toshkent. 2004.
10. Ismoilov H. An'anaviy o'zbek kiyimlari. – Toshkent: Fan, 1978.
11. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. – Toshkent: Adolat, 2004.
12. Qur'oni Karim / Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. Nur surasi, 31-oyat. – Toshkent, 2004.
13. Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Libos tarixi. – Toshkent: Sano-standart, 2015.